

MUMTOZ VA FOLKLOR ASARLARDA RANG SIMVOLIKASINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Jumaboyeva Dilfuza Alisherovna

O'zbekiston Milliy Universiteti Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi I kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada rang tushunchasi, uning insonlar hayotidagi roli, mumtoz va xalq og'zaki ijodi namunalarida ularning turli ramzlarni ifodalab kelishi tahlil qilingan. Shuningdek, ranglar simvolikasining lingvokulturologiyada tutgan o'rni, ya'ni til va madaniyatga ko'rsatgan ta'siri haqida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: simvolika, lingvomadaniyat, qora, qizil, sariq, oq, yashil, ko'k, ranglar, Xizr obrazi, xalq qo'shiqlari, g'azal, "Yada toshi".

ABSTRACT

This article analyzes the concept of color, its place in people's life, and the expression of various symbols in examples of classical and folk art. Also, the place of the symbol of color in linguaculture, that is, its influence on language and culture, was discussed.

Key words: symbolism, linguaculture, black, red, yellow, white, green, blue, colours, the image of Hizr, folk songs, ghazal, "Yada stone".

Har bir millat o'zligi, milliyligini saqlab qolish, dunyoning boshqa xalqlari orasida o'z o'rniga ega bo'lish uchun harakat qiladi. Avvalo, millatni millat sifatida yuksaltiradigan, uning mavqeyini har qachongidan ham oshiradigan omil - bu uning tili, tarixi va madaniyatidir. O'z tilini boy bergan xalqni yarim tanazzulga uchragan deyish mumkin. Shu o'rinda 1933-1944-yillarda AQSH davlat kotibi bo'lgan Kordell Xall o'zining "Yo'qolgan Millatlar" asarida yozgan quyidagi so'zlarini keltiramiz: "Agar siz biror xalqni yo'q qilmoqchi bo'lsangiz, uning tarixiy xotirasini falaj qilishdan boshlang. So'ngra tili va madaniyatini buzib, o'z madaniyatidan boshqa madaniyatni o'zlashtirishga tomon olib borasiz. Undan so'ng esa bu xalqqa o'zlarinikidan boshqa tarixni to'qib, o'rgatasiz. Shunda bu xalq o'z tarixlari, o'z otabobolarining kimligini va qanday odam bo'lganligini unutadi. Mana shu tariqa, ularning sivilizatsiyasining xususiyatlari sekin-asta yo'qoladi. Shu bilan dunyo ularni va ularning madaniyatini unutib, mangulikka yo'q bo'ladi"¹. Bundan kelib chiqadiki,

xalq birinchi navbatda, tili va madaniyatini asrab-avaylamog‘i lozim. Buning uchun shu tilda yaratilgan mumtoz va folklor asarlar, shu xalq tilida kuylanadigan milliy qo‘shiqlar va marosimlarni, urf- odat va an‘analarni saqlab qolmog‘i, ularni yanada rivojlantirmog‘i va kelgusi avlodga ham yetkazmog‘i zarur.

Til va madaniyat birligi asosida lingvokulturologiya sohasi rivojlanmoqda. Hech shubhasiz, bu ikki tushunchani bir- biridan ajralmas birliklar deb atashimiz mumkin. Til har doim madaniyatga o‘z ta‘sirini o‘tkazgani kabi, madaniy taraqqiyot natijasida til ham boyib, rivojlanib boraveradi. Buni birgina misol orqali ko‘rib chiqamiz. Barchamizga ma‘lumki, xalqimizda to‘y va unga bog‘liq bo‘lgan marosimlar talaygina. Masalan, “Kelin to‘y”, “Yuz ochdi”, “Ota ko‘rdi”, “Xatna to‘y”, “Beshik to‘y” kabilar. Ularning barchasi ma‘lum bir tartibda o‘tkaziladi va har birining o‘ziga xos atamalari va nomlanishlari mavjud. Bu har bir viloyatda farq qilishi mumkin, vaqt o‘tishi bilan ulardan ba‘zilari adabiy tilga ham ko‘chadi va barcha uchun tushunarli bo‘la boshlaydi. Buning natijasida til boyib boradi.

Bugungi tadqiq etadigan mavzuyimiz ham bevosita lingvomadaniyat bilan aloqador. Bunda folklor va mumtoz adabiyotda ranglar simbolikasi va uning turli xalqlar madaniyatida harxillik kasb etishi, shuningdek, birlashtiruvchi tomonlari o‘rganilgan.

Savdo-sotiq, iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar rivojlanishi bilan til va madaniyatlar almashinuvi ham kuchaydi. Natijada bir xalqda mavjud bo‘lgan an‘analar, tilga xos bo‘lgan birliklar boshqa xalqlarga ham kirib bora boshladi. Bu esa til, adabiyot va madaniyatlarda ma‘lum bir mushtarakliklar hosil qildi. Mavzuni o‘rganish jarayonida mana shu mushtarak va farqli tomonlarga ham alohida e‘tibor berishga harakat qildik.

Insoniyat yaralibdiki, ma‘lum bir e‘tiqodlarga ishonib kelgan, ular o‘zlarining hayotlarini yengillashtirishiga va qandaydir balo-qazolardan bartaraf etishiga qattiq umid bog‘laganlar. Masalan, ranglarning ma‘lum bir ramziylikka egaligi va inson ruhiyatiga ta‘sir etishiga ishonch bo‘lgan. Mumtoz adabiyotda rang-tasvir vositalaridan keng foydalanish, uni turli xil ramzlarda qo‘llash juda ko‘plab uchraydi. Ijodkor o‘z asarini yaratar ekan har bir ramzdan o‘zgacha foydalanadi, ya‘ni rang simvollarining yangi qirralarini ochadi. Xazrat Alisher Navoiy hattoki ranglarni o‘z g‘azalida radif sifatida ham qo‘llaydi:

Xil‘atin to aylamish jonon **qizil, sarig‘, yashil,**

Shu‘lai ohim chiqar har yon **qizil, sarig‘, yashil.**

Qora rang- „, tun , o‘lim, pushaymonlik, gunoh, jimjitlik, bo‘shliq belgisi. U inkor etish va achchiqlanishni ifodalaydi¹.”Mumtoz adabiyotda ,asosan, shoirlar yor ko‘zi, qoshi, zulfi(sochi)ni tasvirlashda ushbu rangdan foydalanishgan.

¹ Arxiv. Uz. Alisher Navoiyning,, Sab‘ai sayyor “ dostonida ranglar psixologiyasi.

Qaro ko‘zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg‘il,

Ko‘zum **qarosida** mardum kibi vatan qilg‘il. (Alisher Navoiy,,Qaro ko‘zum’)

Shoir “qaro ko‘z” deya ma‘shuqasiga murojaat etmoqda. Bayt ma‘nosi: “ey yorim, odamiylik aylab mendan bir so‘ragin, seni shunchalar sog‘inganimdan ko‘zlarimda qo‘nim topgin. “Yor ko‘zining qaroligi uning go‘zalligini anglatgan va shu sabab oshiqni ne-ne sitam va balolarga giriftor qilgan. Navoiy qora rangni muborak rang hisoblaydi va uni ko‘z, kiprik, xol va sochning ta‘rifida qo‘llaydi. Bu fikrning isbotini Sab‘ai sayyor”da keltirilgan quyidagi misralarda ko‘rishimiz mumkin:

Qora rang elga toji tarokdur,

Kim bu rang ichradur, muborakdur! ¹

“Yetti xil rang” iborasi barchaga ma‘lum, “Tahlili Haft paykar” i Nizomiy” asarining muallifi, eronlik Muhammad Muin o‘sha ranglarning birinchisi sifatida qora rangni ko‘rsatadi.”². Qora rang ko‘p hollarda salbiy ma‘nodagi tushunchalarga nisbatan ishlatilgan. Masalan, “baxti qora”, “yuzi qora”, “qora kunlar” kabi.

Qora rang Abbosiy hukmdorlar orasida ham juda qadrlangan. Rangshunos olimi L.N. Mironovaning: «Abbosiyilar sulolasiga mansub xalifalar qora rangli kiyim kiyishni xush ko‘rganlar. Ularning bayrog‘i ham qora rangda bo‘lgan», — degan so‘zlari buning bir dalili bo‘lishi mumkin.³

Ko‘zung qorasi fitna, vale oqi balodir,

Jonlar oladur, vah, ne balo **ko‘zi qarodir**.(Lutfiy “Qarodir”)

Ushbu baytda oshiqni mashuqasiga rom etgan narsa uning qaro ko‘zlari ekanligi aytilgan. Misrada ko‘zning qoraligi mashuqaning oshiqqa tayyorlagan fitnasi, oqi esa uning joniga balo ekanligi juda chiroyli qofiya zanjiri orqali ifodalangan.

Folklor asarlar, xususan, xalq ertaklarida ham qahramonlar, personajlar va umumiy ertak mazmunini ochish uchun ham ranglardan keng foydalaniladi. Zumrad va Qimmat” dagi qizil va oq sandiqlar detallari, oq va qora devlar, qora botir kabi boshqa ertaklar qahramonlarining nomlanishida ham ramziylikka ishora mavjud. Bundan tashqari, maqollar va xalq qo‘shiqlarida ham rang mavzusi yetakchilik qiladi. Asariyat hollarda mumtoz adabiyotdagi singari qizlarning ko‘zi-yu qoshi, sochi va kipriklari qora rang bilan hamohang beriladi. Quyidagi xalq qo‘shiqlarida ham aynan shu holatni kuzatamiz:

Oq bug‘doyning patiri,

O‘rgamchining chatiri,

Bir-ikki og‘iz aytayin,

Qora ko‘zlar xotiri. („ To‘y olqishi” dan)

¹ Haqqulov I. Qora rang- muborak rang. –T.: 1998.

² Jumaniyozov Sh. Alisher Navoiyning,, Sab‘ai sayyor ‘‘dostonida ranglar jilosi.-T.: 2020.

³ Haqqulov I. Qora rang- muborak rang. –T.: 1998.

Bundan tashqari xalq qo‘shiqdarida ko‘plab toponim va antroponimlarga qora so‘zi qo‘shib aytiladi. Kishilarning ismiga qora so‘zining qo‘shib aytilishi ko‘p hollarda ularning salbiy sifatlaridan darak bergan, ya‘ni ko‘p hollarda ular zulmkor va yovuz inson sifatida tasvirlanadilar. Ba‘zan esa qora so‘zi “ulug‘vorlik”, “buyuklik” ma‘nolarini ham anglatgan. Rus tilshunos olimi A. Kononov qora so‘zining ma‘nolarini tadqiq etadi, uning keltirishicha, A. Ja‘far o‘g‘li “Kitobi Dada Qo‘rqut” dagi qahramonlarning nomidagi qora sifatlanishi jasorat va kuchlilik sinonimi ekanligini ta‘kidlagan.

Tog‘ boshini bosar tuman,

Har ish boladi begumon.

Qoraxondan aytaymi? (“Nima aytay”)

Xalq dostonlarida va qo‘shiqdarida qora so‘zi bilan boshlanuvchi ko‘plab joy nomlarini uchratamiz:

Qoratepa yo‘lini, voy to‘ram,

Ketmonlab choptira olmadim, voy to‘ram.

Bemahal kelgan o‘limni, voy to‘ram,

Ilojin topdira olm adim, voy to‘ram. (“Xotinning eriga yig‘isi”)

Yig‘i va motam marosim qo‘shiqdarida ham qora so‘zini ko‘plab uchratishimiz mumkin, chunki qora rang “motam”, “ayriliq” ma‘nolarini ham anglatgan.

“Qora otliq, qora- to‘nlik,

Meni ko‘rgani keldingmi!?

Ochilgan lolazorimni,

Xazon o‘rgani keldingmi!?

Folklorida ot- murod, oq ot- murodga yetish, uzoq -umr. Aksincha, qora ot-baxtsizlik, o‘lim ramzi hisoblanadi. Bu qo‘shiq lirik qahramoni xonadoniga kelgan bevaqt o‘limdan qiynalib kuylamoqda.”¹

Sariq rang hijron, sog‘inch, ayriliq, kutish va xastalik kabi ramziy ma‘nolarda keladi. Mumtoz adabiyotda ham folklor adabiyotida ham bu rangdan keng foydalaniladi. U ko‘p hollarda yashil rangga kontrast qo‘yiladi, chunki yashil rang “yangilanish”, “yosharish”, “tug‘ilish” ramzi bo‘lsa, sariq, aksincha, “so‘lish”, “keksarish”, “umrning yakunlanishi” ma‘nolarida keladi. Sariq Amerikada qo‘rqoqlik va irodasizlikni ifodalaydi. Bu rang Xitoyda baxt va boylik, Yaponiyada esa go‘zallik va nafasat belgisidir. Hindular sariqni muvaffaqiyat keltiradi deb hisoblashadi.² Xalq orasida esa “bemor bo‘lish”, “kutish”, “intizorlik”, “eskirish” ma‘nolariga nisbatan

¹ Turdimov Sh. Rango-rang dunyo. –T.: Yoshlik, 1987.

² Abdullayeva R. Sharq xalqlari folklorida ranglarning ramziy manolari. –T.: 2021.

ham sariq rang qo'llaniladi. Ba'zan esa bu rang "tushkunlik", "unutish" kabi ma'nolarni ifodalab keladi.¹

Mumtoz adabiyotda Alisher Navoiychalik hech bir ijodkor bu rangning yangi qirralarini ochib bera olmagan. Navoiy "Xamsa" sining to'rtinchi dostoni "Sab'ai sayyor" da, ayniqsa, bu rangni juda ajoyib o'xshatishlar bilan tasvirlaydi. Uning ko'plab ma'nodoshlarini qo'llab, tilimizning naqadar boy va jimjimador ekanligini isbotlaydi. Quyosh, zarbaft, zarnigor, oltun, asfar, za'faron kabi so'zlar ham sariq rangni ifodalagan. Navoiy hatto ayrim g'azallarida uni radif sifatida ishlatadi:

Yaraqondin manga gar bor esa ruxsor **sarig'**,

Turfa ko'ngilki, erur diydai xunbor **sarig'**.

Mumtoz adabiyotda sariq so'zi "sarig'", "sorig'" shakllarida ham qo'llanilgan.

Gul yuzung hajrinda o'zdan ketgay erdim dam-badam,

Gar bu **sorig' yuz** uza ko'z uzmasa har dam gulob.(Lutfiy "Gul yuzung...")

Bayt to'laligicha oshiqning mashuqaga bo'lgan dil izhorini ifodalamoqda. Bunda oshiqning mashuqasi hajrida dam-badam o'zidan ketishi va hijron azobidan yuzining so'lishi, sarg'ayishi tasvirlangan.

Folklorda ham sariq rang juda faol qo'llaniladi, ayniqsa, maqollar, lirik va mehnat qo'shiqlar, aytishuvlarda ko'p uchramiz. Sariq rang ,ko'pincha, xalq urf-odatlarida "ayriliq" ramzi ekanligi aytiladi:

"Kelinning sepiga sariq rangli narsa qo'yilmaydi, bu ayriliqqa olib keladi, deb qaralgan"²("To'y marosimiga atalgan tabular"). Sariq rangning "mahzunlik", "hijron" ma'nolariga ham ega ekanligini quyidagi lirik qo'shiq orqali ham bilishimiz mumkin:

Sandiq usti **sariq gul**,

Taqsam ado b o'lmaydi.

Yurakdagi hasratni,

Aytsam ado bo'lmaydi.

She'rda aynan sariq gul deyilishi ,albatta, bejizga emas. "Yurakdagi hasrat" bilan "sariq gul" o'rtasida bog'liqlik mavjud. Yana bir folklor namunasi bo'lgan "yor-yor" qo'shig'ida ham sariq rang orqali yor tanlashda omadi kemagan yigit kechinmalari ifodalangan:

Sir bo'yini yoqalab topdim qayroq, yor-yor,

Olchanglagan **sariq otga** mindim yaydoq, yor-yor.

Yomon qizga mol berib yalinguncha, yor-yor,

Ikki qo'lim sekillatib yuray bo'ydoq, yor-yor.

¹ Ahadova S. Adabiyotshunoslikda qollaniladigan rang ramzlarining mazmun mohiyati va uning mumtoz adabiyotdagi talqini. -T.: 2022.

²Mirzayev T, Safarov O. Ozbek xalq ogzaki ijodi xreostomatiyasi.- T.: Aloqachi, 2008.

Misradagi “sariq ot” iborasi “kasal” yoki “keksaygan”, “charchagan” ma’nolarida kelmoqda. Bunday otda uzoq yo’lga borib bo’lmaganidek, “yomon yor” bilan ham umr o’tkazish behuda ekanligi aytilmoqda.

Ko’k rang azaldan turkiy elatlarda ko’pincha “motam”, shuningdek, “kuchqudrat” ramzi bo’lib kelgan. Hozir ham yurtimizning ayrim hududlarida azadorlar ko’k rangli kiyim kiyib yurishadi, ayollar boshlariga oq ro’mol o’rashgan, buning tarixiy ildizlari ibtidoiy e’tiqodlarga borib taqaladi. M. Ro’ziyeva o’zining shu mavzudagi maqolasida osmon va suv marhumlar ruhi qo’nim topadigan makon ekanligi, shuning uchun ham ularning rangi ko’k rangda ekanligini aytib o’tadi.¹ O’rta osiyo xalqlarida marhumning yigirmaligi, qirq kunligi va nihoyat bir yilligiga atab turli xil marosimlar o’tkazilgan va ko’k kiyimlar yechilib oq kiyimlar kiyilgan. Mumtoz adabiyotda ko’k so’zidan ham ko’ra ko’proq moviy so’zining qo’llanilishi ancha faol. Navoiy asarlarida ko’k so’zi “osmon, samo, falak” ma’nolarida keladi, ya’ni u rangni emas, balki uning omonimi ma’nosida keladi. Mumtoz adabiyotda ko’k rangning ma’no ifodalashi folklor adabiyotdagidan ancha farq qiladi, bu so’z mumtoz adabiyotda ancha kamunum bo’lganligi uchun moviy rangning ma’no qirralarini ochib berishga harakat qilamiz. Moviy Misrda haqiqat va ezgulikni, Amerikada jasurlikni, Yaponiyada esa tovlamachilik va firibgarlikni bildiradi.²

“Ko’p hollarda ko’k so’zi sharq xalqlarida yashil so’ziga sinonim sifatida keltiriladi, ya’ni yashil so’zi “yangilanish”, “yosharish” ma’nolarida kelgani kabi ko’k so’zi ham shu tushunchalarni ifodalab keladi, buni “ko’karmoq” leksemasi misolida ko’rishimiz mumkin. “Bahor kelishi bilan qir-adirlar asra-sekin ko’kara boshlaydi” gapida “ko’karmoq” so’zi “yashilga burkanmoq, unib chiqmoq” ma’noarini ifodalab kelmoqda. “Ko’kat” so’zining ham tarixiy ildizi ko’k so’ziga borib taqaladi. Misol tariqasida folklor adabiyotining ajralmas qismi bo’lgan maqollardan namuna keltiramiz:

Mehnat bilan yer **ko’karar**.

Duo bilan — el.

Oydinda oq kiygan,

Ko’lankada **ko’k** kiyar.

Maqolda inson hayotidagi baxtli kunlar oydin so’zi bilan berilgan, shunday kunlarda kishilar xursandchilik belgisi sifatida oq rangli kiyimlar kiyishadi. Aksincha, qayg’uli kunlar ko’lanka leksemasi orqali berilgan va bunday paytlarda aza

¹ Isroilova S. Ranglarning etnolingvistik va milliy-madaniy xususiyatlari. -T.: Ozbekiston: til va madaniyat jurnali, 2022.

² Abdullayeva R. Sharq xalqlari folklorida ranglarning ramziy manolari. -T.: 2021.

marosimlarda kiyiladigan ko‘k rangli kiyim kiyiladi.¹ Bundan tashqari marosim qo‘shiqdarida ham “ko‘k” so‘zi ancha faol qo‘llaniladi, ayniqsa, motam marosim qo‘shiqdarida:

Mingan oting ko‘kmidi,

Ko‘k bedasi yo‘qmidi.

Bolalaring mungg‘aytirib

Hech armoning yo‘qmidi. (“Xotinning erining o‘limiga yig‘isi”)

Otning ko‘kligi “tobut” ga ham ishora qiladi, xalqimiz orasida tobutga “yog‘och ot” nomi berilgan. Demak, erning ko‘k otga minishi uning dunyodan o‘tganligini anglatadi.

Yashil rangning hayotimizdagi o‘rni juda beqiyos, chunki psixologik tomondan ham bu rang qattiq stress paytida kishi asablarini tinchlantira olishi va insonga yengillik berishi aniqlangan. Mumtoz adabiyotda ham, folklorda ham bu rang “yangilanish”, “bahor”, “hayotiylik” ma’nolarini anglatadi. Qadimda dunyoning to‘rt tomoniga to‘rt xil rang nisbati berilgan, yashil rang sharqqa nisbatan qo‘llanilgan. Mumtoz adabiyotda Alisher Navoiy ushbu rangni juda faol qo‘llab, personajlar, asar qahramonlari va mazmunini ochib erishda foydalangan. Fikrimizni yana “Sab’ai sayyor” dostoniga qaratamiz: “Dushanba kuni Bahromning navbahor monand axzar libos bila gunbadi azxarg‘a yuz qo‘yg‘oni va sarvi sabzavorning sabz hulla bila jomi zumurrad fom ichinda zuloli hayot no‘sh qilg‘oni va ul chashmai zindagoniydin Xizr hayoti kasb etgoni”. Sarlavhaning o‘zidanoq bobning umumiy mazmunini anglash mumkin. Unda “Xizr hayoti” iborasi bejizga qo‘llanilmagan, mumtoz adabiyotda yashil rang Xizr alayhissalomga hamohang tarzda keladi, chunki “Xizr” bu “yashil” demakdir. U xuddi Iso alayhissalom singari hastalarga hayot bag‘ishlagani aytiladi. “Sab’ai sayyor” dostonida “**xirqasi axzar**”- kiyimi yashil, “**aso axzar**”- hassasi yashil deya Xizr alayhissalomga ishora qilinadi. Bu haqida Nosuriddin Rabg‘uziy qalamiga mansub “Qissasi Rabg‘uziy” asarida shunday deyiladi: „Xizr ma’nisi yashil bolur. Qayu tosh uza Xizr alayhissalom oltursa ul tosh yasharur erdi. Aning uchun Xizr ataldi. Aymishlar: Qayu yerda oltursa ul yer ko‘karur erdi”².

Yashil rang ham xuddi qora singari yor jamolini tasvirlashda faol qo‘llaniladi. Qora rang orqali yorning qosh, ko‘z, kiprik, zulfiga nisbat berilsa, yashil rang orqali uning yosh va go‘zalligi, umrining eng gullagan paytida ekanligi tasvirlanadi.

Ul **yashil to‘nlik** parivash la’lishakkar bor ila,

Ruh to‘tisin qilibdur munfail guftor ila.(A. Navoiy,, Sab’ai sayyor’)

¹ Isroilova S. Ranglarning etnolingvistik va milliy-madaniy xususiyatlari. T.: Ozbekiston: til va madaniyat jurnali, 2022.

² Tilakova N. Folklor va mumtoz asarlarda Xizr obrazining talqini. T.: 2021.

Yashil rang bilan bog‘liq ayrim ma‘lumotlar Mahmud Qoshg‘ariyning „Devoni lug‘oti-t-turk“ asarida ham keltiriladi. Qoshg‘ariy yag‘mo qabilalari yerlarini keza turib, „yada toshi“ haqidagi mifologik afsonalarni eshitadi. Va vaqt o‘tib bu narsani o‘z ko‘zi bilan ham ko‘radi. Bu haqida Qoshg‘ari shunday deb yozadi: „Yada – yomg‘ir, shamol va boshqalarni talab qilish uchun maxsus toshlar (yada toshi) bilan fol ochish usulidir. Bu odat ular orasida keng tarqalgandir. Men buni yag‘molar shahrida o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. U yerda paydo bo‘lgan bir yong‘inni so‘ndirish uchun shunday fol qilingan edi, xudoning amri bilan yozda qor yog‘di. Ko‘z oldimda yong‘inni so‘ndirdi“. ¹ „Yada toshi“ yashil rangli bo‘lganligini muallif asarda ta‘kidlaydi. Bundan kelib chiqiladiki, qadimgi turkiy elatlarda yashil rang „yomg‘ir“, „yog‘ingarchilik“, „bahor“ ramzi bo‘lgan. Folklorda yashil rang, ayniqsa, qo‘shiqalarda, maqollarda va topishmoqlarda keng qo‘llanilgan. Bahor kelishi bilan Navro‘z sayllari uyushtirilgan, bu bayramlarda bahoriy qo‘shiqalar, laparlar, aytishuvlar avjiga chiqqan. Bunday qo‘shiqalar „albatta, „yangilanish“ni tarannum etgan va bu yashil rang bilan ifodalangan:

Navro‘z keldi, yoz keldi.

Turna keldi g‘oz keldi,

Yam-yashil chorbog‘lardan

Bulbulday ovoz keldi.

Oq rang „musaffolik“, „poklik“ ramzi hisoblanadi, lekin dunyoning boshqa xalqlari madaniyatida bu rang anglatgan ma‘no turlichalik kasb etadi. Ozarboyjon olimi M.Saidovning yozishicha: «Oltoyliklarda oq rang motam ramzidir. Manbalar Chinda yashagan turk tilli solorlar uchun oq rangning boshqa ma‘nolar bilan bir qatorda, motam timsoli bo‘lganligidan ham xabar beradilar. Faqat turkiylarda emas, boshqa ayrim xalqlarda ham ko‘k va oq motam, qayg‘u ramzi sanalgan» ² (snoska . Haqqulov I. Qora rang – muborak rang. «Zanjirband sher qoshida». Toshkent, 1898). Qadimgi Rimda fuqarolar poklik, tozalik rangi sifatida oq toga kiyishgan. Islom dinida ham muqaddas ka‘ba ziyoratiga borgan ziyoratchilar oq rangli libos kiyishadi. Yurtimizning ayrim hududlarida ham, xususan, Jizzax, Sirdaryo, Navoiy viloyatlarida motam marosimlarida ayollar boshlariga oq ro‘mol o‘rashadi. Lekin „baxt, yorug‘ hayot“ belgisi sifatida to‘yi kuni kelinlar ham oq ro‘mol yopinshadi va ko‘p hollarda oq libos kiyishadi. Bundan tashqari tilimizda oq rangi bilan bog‘liq birikmalar mavjud: oq sut, oq yo‘l, oq yuvib, oq tarab, oq xalat sohiblari. Bundan kelib chiqish mumkinki, xalqimiz lingvomadaniyatida oq rang, asosan, ijobiy ma‘nolarni ifodalab keladi. Lekin mumtoz adabiyotda bu rang boshqacharoq ramzni ifodalagan, masalan, Navoiy

¹ Mahmud Qoshg‘ariy. Devoni lug‘ot-at-turk.-T: 1960.

² Haqqulov I. Qora rang-muborak rang. –T.: 1998.

o‘z asarlarida qora rangni „ baxtsizlik” ramzi sifati ifodalaydi, oq esa „ yanayam kuchliroq baxtsizlik” ni bildiradi deya aytadi. Lekin shoir oq rangning ijobiy ma‘nolarini ham mahorat bilan qo‘llaydi., „ Sab‘ai sayyor” dostonida juma kun oq qasrda sevgilisi Diloromning daragini eshitadi, bunda Navoiy oq rang orqali yorug‘lik, baxtga ishora qiladi. Folklorda oq rangi ko‘proq ko‘k va qizil ranglar bilan birga birikma holida qo‘llaniladi. Masalan, bolalar folklorida mashhur bo‘lgan o‘yin „ Oq terakmi, ko‘k terak”, „ Oq olma, qizil olma” lirik qo‘shiqlari.

Oq olma, qizil olma pishmas ekan,
Ikki yaxshi bir yerga tushmas ekan.
Ikki yaxshi bir yerga tushganida,
Umrining o‘tganini bilmas ekan.

Folklorda oq, qizil, olma obrazlari mustaqil ma‘nolarni anglatadi: oq- yigit kishi, qizil- qiz bola, olma- sevgi, muhabbatdir. Qo‘shiqda bir-biriga muhabbat qo‘ygan ikki qalb har doimham birga bo‘la olmasliklari, agar birga bo‘lishsa umrlarining qolgani armonsiz o‘tishi aytiladi. ¹(Snoska T. Mirzayev. O‘zbek folklori. Toshkent, 2008.)

Xalq orasida „oq ilon” - „ uy iloni”, uni o‘ldirish baxtsizlik keltiradi, degan qarash mavjud, buni quyidagi xalq qo‘shig‘i mazmunidan ham bilib olishimiz mumkin:

Oq ilon, oppoq ilon,
Oydinda yotganing qani?
Men – yomondan ayrilib,
Yaxshini topganing qani?

Oq ilon tabiatan kamyob jonivor hisoblanadi, shuning uchun uni oydinda yotganini ko‘rgan inson baxtli bo‘ladi, deya ishonib kelingan. Oq ilonni ko‘rish qanchalik noyob va kamyob hodisa bo‘lsa, uni oydinda yotganini ko‘rish undan ham mushkuldir, shu sababli qo‘shiqda lirik qahramon mendan ayrilib yana yaxshi bir insonni topishing ham shunchalik mishkuldir, deya mashuqasiga murojaat qilmoqda.

Qizil rang- urush, zo‘ravonlik, issiqlik, shahvat kabi ramziy ma‘nolarda keladi.(snoska. Turdimov.Sh. Rango-rang dunyo. Yoshlik,1987,8-son). Bundan tashqari bu rang kuchli ta‘qiqni ham anglatadi, buni bugungi kunimiz misolida ham ko‘rishimiz mumkin, birorta hududga kirishni ta‘qiqlash yoki biror bir havfdan haydovchini ogohlantirish uchun qizil rangli yo‘l belgisidan foydalaniladi, svetaforlarda ham qizil chiroq to‘xtash belgisini bildiradi. Folklor va mumtoz adabiyotda esa qizil rang- qiz bola, ayol ma‘nolarida keladi. Ko‘pincha, qizil so‘zi bir qator birikmalar bilan keladi va bunda yor va uning labiga ishora qiladi. Shayx Najmiddin Kubro yetti xil rang xislatini yetti tushunchaga moslab talqin etgan. Bularning orasidan qizil rang ham o‘rin olgan:

¹ Mirzayev T. Ozbek folklori. T.: 2008.

- 1) *Oq- islomni;*
- 2) *Sariq- iymonni;*
- 3) *Zangori- ehsonni;*
- 4) *Yashil- ishonchni(itmino);*
- 5) *Ko 'k- to 'liq ishonchni(iqon);*
- 6) **Qizil-** irfonni;

7) *Qora- hayajon, hayratni anglatgan.*¹(snoska. Abdurahmonova. A. Saodatga eltuvchi bilim. Toshkent., Movorounnahr'' 2005)

Navoiyning,, Sab' ai sayyor'' dostonida ham qizil rangning ma'nolari ochib berilgan. Unda shoh Bahrom seshanba kuni qizil qasrda, zuhro(Mars) yulduzi ostida Yo'na va uning do'sti Ma'sud hikoyasini tinglaydi. Tarixda shohlar, hukmdorlar o'zlariga qizil rangli kiyimlar tanlashgan, bu ham, albatta, ramziylikka ega bo'lgan, ya'ni qizil rang g'azab, qahr, qo'rquv ma'nolarini bergan. Hukmdorlar boshqalarda o'ziga nisbatan qo'rquv uyg'otish uchun ham shunday rangli libos kiyishgan. Folklorda qizil rang, asosan, qiz bolaga ishora qiladi. Xalq qo'shiqlarida qizil rangli biror predmed keltirilsa, u ko'p hollarda qiz bolaga tegishli bo'ladi. Masalan, qizil ro'mol, qizil ko'ylak, qirmizi dudoq, qizil gul kabi:

Qiz bolaning ro'moli,
Qizil gulli shoyi,
Sumalakjon, sumalak,
Sumalakjon, sumalak,

Shuningdek, folklorda,, **qizil olma''** birikmasi juda faol qo'llanadi, bu ham qiz bolaga ishora. ,, **Yuzi qizil olmadek''** deya qiz bolani ta'riflash ham uning go'zalligidan dalolat beradi.

Mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodi ni ayro holda tasavvur qilish qiyin, ular bir butunlikni tashkil etadi. Yozma adabiyot har doim folklordan ilhomlanib rivojlangan, yirik, shoh asarlarning ham ,, xamirturush'' lari xalq og'zaki ijodidan olingan desak hech adashmaymiz. Folklordagi ko'plab obrazlar, shuningdek, rang-tasvir bilan bog'liq ramziy tushunchalar mumtoz adabiyotda yanada sayqal topgan, yangicha ma'nolar ham kasb etgan. Ular doimo bir-birini to'ldiradi. Inson ruhiyati doimo rang-baranglikka intiladi, chunki ranglar psixologiyamizga bevosita ta'sir etib, ijobiy yoki salbiy xisssiyotlar beradi. Shuning uchun ranglarning inson hayotidagi o'rni juda muhim. Garchi ranglar turli madaniyatlar va xalqlarda turlicha ramzlarda talqin etilsa-da, ularning barchasi umumbashariy qadriyatlarining rivojiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

¹ Abdurahmonova A. Saodatga eltuvchi bilim. -T.: Movorounnahr, 2005.

1. „O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xreostomatiyasi” T.Mirzayev, O.Safarov, D.O‘rayev. „Aloqachi”. Toshkent, 2008.
2. „Folklor musiqa ijrochiligi” Nozim Qosimov. „Talqin”. Toshkent, 2008.
3. „O‘zbek xalq musiqa ijodi” H.Nurmatov, N.Yo‘ldosheva. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2007.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 10-jild. -Toshkent, 1992.- B- 177.
5. Haqqulov I. Qora rang – muborak rang. «Zanjirband sher qoshida». Toshkent, 1998. 36-45-betlar.
6. Turdimov.Sh. Rango-rang dunyo. Yoshlik,1987,8-son , Pp. 60-62
- 7) T. Mirzayev, Sh. Turdimov, M. Jo‘rayev va boshqalar. Folklor amaliyoti. Toshkent, 2020.
8. G. Sh. Shomusarov(muharrirligida). Sharq xalqlari folklori- milliy qadriyatlar in‘ikosi. Toshkent, 2021.
- 9) Abdurahmonova. A. Saodatga eltuvchi bilim. Toshkent.,, Movorounnahr’’ 2005. 362-bet.
- 10) Алишер Навоий: газаллар ва шархлар. Т.:, Камалак’’, 1991.
- 11) Alisher Navoiy.,, Xamsa’’. Yangi asr avlodi. Toshkent, 2014.
- 12),, Oq olma, qizil olma’’. T. 1972.
- 13) „ Folklor va mumtoz asarlarda Xizr obrazining talqini’’ Tilakova. N. Toshkent, 2021.
- 14) Ahadova.S. „Adabiyotshunoslikda qo‘llaniladigan rang ramzlarining mazmun-mohiyati va uning folklor adabiyotdagi talqini’’.Toshkent,2022